

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

Kasb talimi (Informatika va AT) kafedrasi

iSpring QuizMaker dasturida Web dasturlash fanidan testlar
kompleksini ishlab chiqish

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ilmiy rahbar_____ dos. O.Jakbarov

2017 y. «___» _____

Namangan – 2017

Mundarija

Kirish.....	3
1-bob. Darajali testlar majmularini yaratuvchi tizimlar tahlili.....	6
1.1. Darajali testlar va ularni yaratish bo`yicha mavjud manbalar tahlili	6
1.2. Testlar majmularini ishlab chiqish samaradorligi va o`quv jarayonini tashkil etishdagi o`rni	8
1.3. Masalaning o`rganilganlik darajasi va uning qo`yilishi.....	11
2-bob. iSpring QuizMaker dasturi va uni o`rnatish talablari, xis qilinuvchi darajali testlar ishlab chiqish bo`yicha dasturning imkoniyatlari	13
2.1. iSpring QuizMaker dasturi imkoniyatlari va uning interfeysi	13
2.2. iSpring QuizMaker dasturi va uni testlar majmularini ishlab chiqishdagi samaralarini baholash.....	15
2.3. Web dasturlash fani bo`yicha me`yoriy xujjatlar va ularni asoslarini shakllantirish	19
2.4. Tester tizimi yaratish ketma- ketligi.....	21
3-bob. iSpring QuizMaker dasturida Web dasturlash fanidan multimedia vositali darajali testlar majmuasini ishlab chiqish	29
3.1. Web dasturlash fanidan mavzular kesimida testlar kompleksini ishlab chiqish29	
3.2. iSpring QuizMaker dasturida Web dasturlash fanidan multimedia vositali darajali testlar majmuasini yaratish texnologiyasi	36
3.3. O`quv mashg`ulotlari dasturiy mahsulotdan foydalanish va uning samaradorligini baholash	38
4-bob. Hayot faoliyati xavfsizligi	42
4.1. Elektron didaktik vositalar yaratishda kompyuter bilan ishlash vaqtida insonning charchash sabablari	42
4.2. Mashg`ulotlarni tashkil etishda kompyuter xonasi va operatorning ishchi joyini tashkil etish talablari	42
Xulosa.....	45
Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati	46
Ilova.....	47

Kirish

“Odamlarga bitta baliq bersangiz,
ular bir kun to`q bo`lishadi; ularga
baliq ovlashni o`rgatsangiz bir
umr to`q bo`ladi”

Konfusiy

Mavzuning dolzarblii. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2016 yil 15 yanvar kungi mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma`ruzasida “... Shuni ta`kidlash lozimki, bugungi kunda jahon miqyosida yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning taxminan 5,5 foizi axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasiga to`g`ri kelmoqda. Nufuzli xalqaro ekspertlarning fikriga ko`ra, 2020 yilda bu ko`rsatkich 9 foizdan oshadi” – deya keltirib o`tgan fikrlarini o`zi ham ko`rsatib turibdiki, biz professor – o`qituvchilar oldiga bugungi kun talabiga to`la javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashdek juda katta mas`uliyat yuklanayotganligidan dalolat beradi.

Ma`lumki, hozirgi kunda internet texnologiyalari jadal sar`atlar bilan rivojlanib bormoqda, bu esa talabalarni internetda ishslash bilan birga ularga mos ravishda turli xil sahifalarni yaratish texnologiyasini bilishlari talab qilinadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 11 martdagи “Respublika oliv o`quv yurtlarining kunduzgi bo`limlariga qabul qilishni takomillashtirish to`g`risida”gi PF-361-sonli farmoni mamalakatimiz OTMlariga qobiliyatli yoshlarni tanlab olish sohasida ta`limdagi tub islohotlarni boshlab berdi.

Respublikamizning 6 ta OTMdа test sinovi asosida o`qishga qabul qilish tajribadan o`tkazildi. O`zR Prezidenti farmoniga muvofiq 1992 yil 9 aprelda O`zR Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining “O`zbekiston Respublikasi oliv o`quv yurtlarining kunduzgi bo`limlariga qabul qilish bo`yicha eksperimentni tashkil etish va o`tkazish to`g`risida”gi 181-sonli qarori qabul qilindi.

Respublikamizda o`qitish texnologiyalarini zamonaviylashtirishni jadallashtirish rivojlangan iqtisodiyotli mamlakatlarga qaraganda yanada dolzARB ahamiyatga ega. Chunki hozirgi kunda milliy ta`lim tizimining salohiyati iqtisodiy rivojlanishning yanada yuqori pog`onasiga ko`tarilishga amaliy imkoniyat ta`minlovchi asosiy ijtimoiy resurs sifatida gavdalanadi.

SHu o`rinda prezidentimiz Islom Abdug`anievich Karimovning 2012 yil 21 mart, PK-1730-sonli “Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida” qarorlaridan kelib chiqib, kasb hunar kollejlari o`quvchilariga ta`lim tarbiya berishda informasion texnologiyalardan keng foydalanish katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Fan sohasini formal tasnifi. Bitiruv malakaviy ishi mavzusida keltirilgan Web dasturlash fani kasb-hunar kollejlarining informatika va axborot texnologiyalari, multimedia tizimlari va texnologiyalari kichik mutaxassisliklarining mutaxassislik fanlari blokida o`qitiladi. Bugungi kunda manashu mutaxassisliklarni shu fan bo`yicha ma`ruza mashg`ulotlari 3 kursda o`qitiladi. “Web dasturlash” fani doirasida o`quvchilar elektron sahifalar, web saytlarni yaratish, saytlarni va sahifalarni yaratish bo`yicha dasturlashtirish asoslarini va texnikalarini (usullarini) o`rganishadi. Nazariy asoslari elektron sahifalarni dasturlashtirish bilan bog`liq qo`llaniladigan tushunchalar va modellarni o`z ichiga oladi. Web brauzerlar, Web brauzer dasturlari, Internet Explorer dasturi va

imkoniyatlari, Web celerator, AtGuard, AdWiper brauzer dasturlari, Mosaic brauzeri. Web sahifa tushunchasi, gipermatnlarni belgilash tili (HTML), gipermatnlarini uzatish protokoli (HTTP), Web sahifalarni yaratish uchun dasturiy vositalar bo`yicha oddiy ko`nikmalaridan kompleks bilimlar orqali o`tadi. SHuningdek amaliy texnika bilan ma`lumotlar modeli va saytlar yaratishning nazariy asoslari e`tiborga olinadi.

SHuningdek:

- Internet tarmog`ida elektron web saylar bilan ishlashni o`rganish
 - Web saytlarni yaratish uchun mo`ljallangan CMSlar bilan ishlashni o`rganish
 - SQL Server ma`lumotlar bazasi bilan ishlashni o`rganish
 - Internet tarmog`ida joylashtirilgan shablon asosida yaratiluvchi saytlar bilan ishlani o`rganish
- Ushbu fanni o`rganish davomida: elektron saytlarni strukturasi, saytlarning tiplari, wordpress, joomla, dropal, datalife dasturlari bilan ishlash usullari va prinsiplari haqida tushunchalar beriladi.

Ushbu sohadagi muammolar va mazkur ishning zarurati. Bugungi kunda kasb-hunar kollejlarida o`qitiladigan mutaxassislik fanlaridan dars mashg`ulotlarini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida tashkil etish dolzARB masalalardan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida o`quvchilarni mutaxassislik fanlari bo`yicha bilimlarini yuqori bo`lishi hamda amaliyot bilan bog`liq ravishda tashkil etishda pedagogik texnologiyalarni turli metodlarini qo`llash masalasi ustida juda ko`plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ta`lim sohasida samaradorlikni oshirish muammolarini hal qilishda aynan pedagogik texnologiyalarni qo`llab dars mashg`ulotlarini tashkil etish yaxshi natijalar berishi juda ko`p fanlarda o`z samarasini bermoqda.

“Web dasturlash” fanini ma`ruza mashg`ulotlarini tashkil etishda Klaster, Limerik va Sinkveyn texnologiyalaridan foydalanish mavzusida keltirilgan bitiruv malakaviy ishini bajarilishi natijasida kasb-hunar kollejining manashu fanni o`rgatuvchi o`qituvchilari uchun dars ishlanma, didaktik materiallar hamda oraliq va yakuniy nazoratlarni avtomatlashtirish uchun elektron sahifalar asosidagi mavzular ketma-ketligidagi testlar kompleksini ishlab chiqish va foydalanish nazarda tutiladi.

Loyihaning maqsadi va vazifalari (samaradorligini oshirish, sifatini yaxshilash). Bitiruv malakaviy ishi mavzusida keltirilgan muammoni hal qilishda asosiy maqsad sifatida o`quv mashg`ulotlarini o`tish samaradorligini oshirish hamda o`quvchilarni ko`roq bilim olishlari va yetuk mutaxassis bo`lib yetishlari uchun ularning o`zlashtirgan bilimlarini tekshirish hamda yetarli samaraga erishishdan iborat.

Masalaning noformal tavsifi (mazkur ishning maqsadi).

Bitiruv malakaviy ishida kasb-hunar kollejalarining Informatika va axborot texnologiyalari, Multimedia tizimlari va texnologiyalari bo`yicha kichik mutaxassislar uchun mutaxassislik fanlari blokidagi Web dasturlash fanida pedagogik texnologiyalarning turli metodlarini o`quv jarayonida mavzuga qo`llash va yetarli samaraga erishish ishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining ob`ekti va predmeti. Ushbu bitiruv malakaviy ishining ob`ekti-axborot texnologiyalari bo`yicha o`qitishning mazmuni, predmeti-tayanch bilimlarni shakllantirishda qo`llanadigan pedagogik innovasiyalar.

Bitiruv malakaviy ishi natijalarini ilmiy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida ko`tarilgan masalalar bugungi ta`lim jarayonini tashkil etishdagи dolzARB masalalarni hal etishga qaratilgan. Unda olingan natijalar amaliy ahamiyatga ega bo`lib, ishlab chiqilgan barcha axborot texnologiyalari yo`nalishidagi mutaxassislik fanlar blokidagi Web dasturlash fanini o`qitishda zarur uslubiy testlar ta`minoti va didaktik vosita vazifasini bajaradi hamda o`tilayotgan mavzuning mazmun-mohiyatini to`liq ochib berish va o`zlashtirish natijalarini tahlil qilishga hizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar hamda ilovalardan tashkil topgan.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslanilib, bugungi kunda ta`lim sohasida Respublikamizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida mulohazalar beriladi. Bitiruv ishining qismlari qisqacha tavsiflanadi.

1-bobda darajali testlar majmularini yaratuvchi tizimlar tahlili, darajali testlar va ularni yaratish bo`yicha mavjud manbalar tahlili, testlar majmularini ishlab chiqish samaradorligi va o`quv jarayonini tashkil etishdagi o`rni hamda masalaning o`rganilganlik darajasi va uning qo`yilishi, shuningdek fanni o`qitishdagi konseptual yondashuvlar bayon etiladi.

2-bobda iSpring QuizMaker dasturi va uni o`rnatish talablari, xis qilinuvchi darajali testlar ishlab chiqish bo`yicha dasturning imkoniyatlari, iSpring QuizMaker dasturi va uni o`rnatish talablari, testlar majmularini ishlab chiqishdagi samaralarini baholash, Web dasturlash fani bo`yicha me`yoriy xujjatlar va ularni asoslарini shakllantirish hamda dars mashg`ulotlarini tashkil etishning zamonaviy shakl va metodlari o`rganiladi.

3-bobda esa, iSpring QuizMaker dasturida Web dasturlash fanidan multimedia vositali darajali testlar majmuasini ishlab chiqish, Web dasturlash fanidan mavzular kesimida testlar kompleksini ishlab chiqish, iSpring QuizMaker dasturida Web dasturlash fanidan multimedia vositali darajali testlar majmuasini yaratish texnologiyasi, o`quv mashg`ulotlarida yaratilgan dasturiy mahsulotdan foydalanish bo`yicha yo`riqnomalar ishlab chiqish, o`quv mashg`ulotlarida dasturiy mahsulotdan foydalanish va uning samaradorligini baholash kabi vazifalar amalga oshiriladi.

Namunali tarzda dars mashg`ulotini o`tkazish maqsadida elektron didaktik materiallar sifatida test topshiriqlari kompleksi yaratiladi. Elektron qo'llanmani yaratish texnologiyasi va undan foydalanish bo`yicha yo`riqnomalar ishlab chiqiladi. Muammoli o`qitish texnologiyalarini qo'llashning talabalarni ijodiy fikrlashlariga bo`lgan ta`siri tahlil etiladi va bayon qilinadi.

4-bobda ta`lim beruvchilar uchun mehnat sharoitini tahlil etish va havfsiz hamda sog'lom mehnat sharoitini yaratish choralar o`rganiladi. Har bir bob ushun alohida hulosalar taqdim etiladi va umumiy bajarilgan ish bo'yich yakuniy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Shunday qilib, samarali o`tkazilgan dars mashg`uloti hamda mashg`ulotda talabalar bilimini aniqlash uchun foydalaniladigan testlar kompleksi orqali axborot texnologiyalarini o`rgatishda nazariy bilimlarni mustahkamlanishiga va o`quvchida kerakli malakalarni hosil bo`lishiga olib keladi. Fan o`qituvchisi esa turli xil shakldagi dars mashg`ulotlarni o`tkazishning samarali uslublarini izlab topishga, iloji boricha ilg`or va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish choralarini ishlab chiqishga va o`quv jarayoniga qo'llashga mas`uldir. Zero, shundagina biz o'z fanimizga o`quvchini jaib eta olgan bo'lamic.

1-bob. Darajali testlar majmularini yaratuvchi tizimlar tahlili

1.1. Darajali testlar va ularni yaratish bo`yicha mavjud manbalar tahlili

XXI asr fan texnika, ta`lim, medisina, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda katta o`zgarishlar olib kirdi. Haètimizni barcha sohalariga axborot texnologiyalarini joriy qilinishi, fan texnika sohasidagi yangiliklarni sekund sayin yaratilishi, duneda axborotlarni chegara bilmay qolganligi insoniyat ongini yana bir daraja ko`tarilib rivojlanishiga sabab bo`lmoqda.

E`tibor bersak, axborot asri deb atalmish ushbu asrda tug`ilaètgan farzandlarimiz aql-idrok jihatdan ustunroq ekanligini ko`rishimiz mumkin. Bunday èshlarga shiddat bilan rivojlanib boraètgan jamiyatda ta`lim-tarbiya berish, ularni mustaqil fikrlaydigan, o`z fikrini mustaqil ayta oladigan qilib tarbiyalash, ularni shaxsini rivojlantirish uchun ta`lim sohasida ham o`zgarishlarni talab qilmoqda. An`anaviy o`qitishdan zamonaviy o`qitish, ya`ni yangi pedagogik texnologiyalar, o`qitishning yangi axborot texnologiyalari asosida o`qitishga o`tish zamon talabidir. O`quv jaraènini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish natijasida ta`lim maqsadlari belgilanadi èki loiyhalanadi, kutilaètgan natija-ijobiy sifat o`zgarishi kafolatlanadi, o`quv jaraèning takrorlanuvchi sikli yaratiladi.

Didaktlarni fikri va amaliètning ko`rsatishicha, o`quv maqsadlarining, erishiladigan natijasi aniq va osonroq ifodalaydigan shakllardan biri-test topshiriqlaridir.

Insonlar o`ratasidagi psixologik farqlarni aniqlash 19 asr psixologiyasiga oid bo`lib, uni birinchilar qatorida F.Galton ishlatishga harakat qilgan. U “kvalimetriya», ya`ni o`lchash degan tushunchani fanga kiritdi. Pedagogikada test asosida o`lchashni o`rganuvchi fan testologiya deb ataladi. 1864 yili binrinchi marta pedagogik test DJ.Rays tomonidan orfografiya uchun ishlab chiqildi. T.Stoun tomonidan arifmetika fani uchun test ishlab chiqildi.. 1902 yili E.Torondayk pedagogik testlarning nazariy asoslarini ishlab chiqadi.

1961 yili AKSHda 2000 dan ortiq standart testlar ishlab chiqildi. Jahon test kompaniyasi tashkil topdi (Educational Testing Service)

1925 yili Rossiyada “Maktab ishlari metodikasi” institutida test komissiyasi tashkil etildi.

1926 yili birinchi standar testlar yaratildi.

1936 yili "test" metodi burjuaziya elementi sifatida qayta-qayta, undan voz kechilgan. V 60-yillarda Rossiya pedagoglari yana testlarga murojat etishni boshladilar.

20 asrning boshida Amerikalik olim V.A.Makkoll psixologik va pedagogik testlarni ajratadi. 1915-1930 yillarda Amerikada testologiya fani juda tez taraqqiy etadi va maktabdagi barcha fanlardan milliy testlar ishlab chiqiladi.

Xususan davlatimizda 1992 yilda testlar ikki variantli (A, V) bo`lib, ona tili, matematika, ijtimoiy fanlar-tarix va geografiya, tabiiy fanlar-fizika, geografiya, kimyo, xorijiy tillar bo`yicha 50 tadan savollardan tashkil topgan. Abiturientlar ta`lim yo`nalishiga qarab 3 tadan fanni tanlaganlar.

1993 yilda 46 ta oliy ta`lim muassasalarining 9 tasida tajriba tariqasida test sinovlari o`tkazildi.

1994 yil 14 maydaggi 258-sonli O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat test markazi tashkil etish to`g`risida” gi qarori bilan Oliy o`quv yurtlarining kunduzgi bo`limlariga abiturientlar tanlash bo`yicha Respublika markazi O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markaziga aylantirildi. Davlat test markazi zimmasiga oliy va o`rta maxsus o`quv yurtlarida test sinovlarini tashkil etish va o`tkazish yuklatildi.

1993-1994 yillarda testlar ikki variantli (A, V) bo`lib, kunduzgi va kechki bo`limlar uchun ona tili, matematika, ijtimoiy fanlar-tarix va geografiya, xorijiy tillar bo`yicha 48 tadan savollar, tabiiy fanlar-fizika, geografiya, kimyo bo`yicha 72 ta savollardan tashkil topgan.

1995 yilda testlar 3 variantli (A, V, S) bo`lib, ona tili, matematika, fizika, kimyo, biologiya, istoriya, geografiya, xorijiy tillar, o`zbek tili, rus tili bo`yicha **36 tadan** savollardan tashkil topgan.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 14 maydagi “O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat test markazi tashkil etish to`g`risida” gi 258-sonli qarori, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 iyundagi 293-sonli «O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi faoliyatini takomillashtirish to`g`risida»gi qarori asosida hamda 1996 yilda oliv va o`rta maxsus o`quv yurtlari qabuli jarayonidagi test sinovlarida test topshiriqlari variantlarini yo`nalishlari, mutaxassisliklar va ta`lim tillari bo`yicha kompyuter yordamida generatsiyalash (tuzish)ga asoslanuvchi yangi, ko`pvariantli test tizimi yaratildi va qo`llanildi. Ushbu test tizimidan hozirgi kunda ham foydalanimoqda.

2009 yilda 80 ta har bir tipdagi savollar kitobi uchun 30 tadan variant joriy etildi.

2010 yilda har bir abiturient uchun individual variantli test tizimiga o`tish amalga oshirildi.

1.2. Testlar majmularini ishlab chiqish samaradorligi va o`quv jarayonini tashkil etishdagi o`rni

Uzluksiz ta`lim tizimida elektron axborot ta`lim resurslarini (EATR) yaratish hozirgi vaqt达 dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Dasturiy ta'minotlar tahlilini bayon etishdan oldin, EAT resurslariga nimalar kirishini ko'rsatib o'taylik.

EAT resurslariga fan bo'yicha yaratilgan elektron darslik, o'quv qo'llanma, metodik ko'rsatmalar, multimediyali vositalar, ma'lumotnomalar va lug'atlar, gipermatnlar, elektron testlar va topshiriqlar hamda shunga o'xhash talabaning mustaqil bilim olishini ta'minlovchi, o'rganishga qiziqish uyg'otuvchi resurslar kiradi [Fanning o'quv-metodik majmuasi/ O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2009-yil].

uqorida keltirilgan resurslarga qo'shimcha sifatida pedagogik dasturiy vositalar, video va audio ma'ruzalar, virtual laboratoriya stendlari, intreaktiv plakatlarni kiritish mumkin.

EAT resurslarini yaratishda keng ishlatilib kelinayotgan dasturiy ta'minotlardan biri iSpring dasturi hisoblanadi [<http://www.ispringsolutions.com>]. Odatta, taqdimotni o'tkazishga tayyorlanish jarayonida aksariyat hollarda Microsoft PowerPoint dasturiy ta'minotidan foydalaniladi. Ammo bunday taqdimotlar faqat mazkur mahsulot formatidagina bo'lishi mumkin (ppt, pptx). Hozirgi vaqt达 internet texnologiyalarining rivojlanishi va o'z navbatida, masofali ta'lim turining paydo bo'lishi natijasida taqdimot fayllarini internet brauzerining o'zida onlayn ravishda to'g'ridan-to'g'ri ko'rish uchun flash (swf) formatida yoki HTML 5 texnologiyasi asosida yaratilgan fayl bo'lishi kerak. Hozirga kelib, PowerPoint dasturida tayyorlangan taqdimotdan flash-rolik shakllantirish imkoniyatini beruvchi dasturlar yaratilgan. Mahsulot iSpring deb nomlanadi va iSpring Free, iSpring PRO va iSpring Presenter kabi variantlarga ega [<http://www.ispringsolutions.com>]. Mustaqil ekspertlarning fikriga ko'ra, bugungi kunda mazkur mahsulot tezligi, bir formatdan boshqa formatga konvertatsiyalash sifati va opsiyalar soniga ko'ra eng yaxshilaridan biri hisoblanadi. iSpring nafaqat flash-taqdimotlarni yaratishga, balki ta'lim jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan roliklar tayyorlashda, xususan, ularga turli shakldagi so'rovlar, elektron testlarni ham kiritgan holda o'zaro interaktiv bog'lanish imkoniyatini ham beradi.

iSpring quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- taqdimot fayllarini bir necha (exe, swf, html) formatlarda konvertatsiyalash imkoniyati;
- taqdimot kontentiga tashqi resurslarni (audio, video yoki flash fayllarni) kiritish imkoniyati;
- taqdimot kontentini muhofaza qilish: parol yordamida ko'ra olish, taqdimotga «himoya belgi»si qo'yish, taqdimotni faqat ruxsat etilgan domenlardagina «aylantirilishi»;
- video qo'shish va uni animatsiyalar bilan sinxronlashtirish;
- elektron test(nazorat)larini yaratish va natijalarini elektron pochtaga yoki masofaviy o'qitish tizimiga (LMS) uzatib berish imkoniyatini beradigan interaktiv matnlar yaratish uchun vosita o'rnatilgan (Quiz tugmachasi);
- masofaviy o'qitish tizimida foydalanish uchun SCORM/AICC — mos keluvchi kurslarini yaratish;
- taqdimot dastur darajasida aylantirish uchun ActionScript API;
- videotasvirni yozish va uni taqdimot bilan sinxronlashtirish;
- YouTube'ga joylashtirilgan roliklarni taqdimot tarkibiga kiritish imkoniyati.



iSpring dasturining interfeysi

EAT resurslari ichida kiruvchi ma'lumotnomalar va lug'atlarni yaratish uchun iSpring Kinetics dasturini keltirish mumkin.

iSpring Kineticsning quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud:

- biror-bir fan bo'yicha elektron ko'rinishdagi qulay bo'lgan glossariy, ma'lumotnomma yoki lug'at yaratish;
- vaqt shkalasini yaratish;
- 3 o'lchovli kitob yaratish;
- FAQ yaratish mumkin.



iSpring Kinetics dastur imkoniyatlari

EAT resurslari ichida kiruvchi elektron nazorat turlarini yaratish uchun iSpring QuizMaker dasturini keltirish mumkin.

iSpring QuizMaker quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud:

- tarmoqlangan testlar yaratish imkoniyati (adaptatsiyalashtirilgan testlarni yaratish) imkoniyati;
- ikki, uch, to'rt yoki besh javobli yopiq test topshiriqlari, ulardan biri to'g'ri, ikkitasi haqiqatga yaqinroq turidagi topshiriqlari;
- bir necha to'g'ri javobli yopiq test topshiriqlari;
- ochiq test topshiriqlari;
- o'xshashlikni aniqlashga yo'naltirilgan topshiriqlar;
- to'g'ri ketma-ketlikni aniqlashga mo'ljallangan topshiriqlarni yaratish imkoniyati.



3-rasm. iSpring QuizMaker dasturining interfeysi

1.3. Masalaning o`rganilganlik darajasi va uning qo`yilishi

iSpring QuizMaker dasturida Web dasturlash fanidan testlar kompleksini ishlab chiqish mavzuda keltirib o`tilgan bitiruv malakaviy ishida asosiy vazifa mavzuning mazmuni doirasida fanga tegishli bo`limlarni ajratib olish, har bir bob bo`yicha mavzularni mazmunini alohida shakllantirish hamda shu mavzular mazmunidan kelib chiqqan holda har bir mavzu doirasida darajali testlar kompleksini ishlab chiqish mavzuning asosiy mohiyatini tashkil qiladi.

SHuningdek, bitiruv malakaviy ishida quyidagi vazifalarni amalga oshirishni belgilab olinadi:

- Darajali testlar majmularini yaratuvchi tizimlarni tahlil qilish;
- Darajali testlar va ularni yaratish bo`yicha mavjud manbalar tahlilini amalga oshirish;
- Testlar majmularini ishlab chiqish samaradorligi va o`quv jarayonini tashkil etishdagi o`rnini tahlil qilish va asoslash;
- iSpring QuizMaker dasturi va uni o`rnatish talablari, xis qilinuvchi darajali testlar ishlab chiqish bo`yicha dasturning imkoniyatlarini yoritib berish orqali mavzuning dolzarbligini yanada asoslab berish;;
- iSpring QuizMaker dasturi va uni o`rnatish talablarini ishlab chiqish;
- iSpring QuizMaker dasturi va uni testlar majmularini ishlab chiqishdagi samaralarini baholash;
- Web dasturlash fani bo`yicha me`yoriy xujjalarni shakllantirish;
- iSpring QuizMaker dasturida Web dasturlash fanidan multimedia vositali darajali testlar majmuasini ishlab chiqish;
- Web dasturlash fanidan mavzular kesimida testlar kompleksini ishlab chiqish;
- iSpring QuizMaker dasturida Web dasturlash fanidan multimedia vositali darajali testlar majmuasini yaratish texnologiyasini ishlab chiqish;
- O`quv mashg`ulotlarida yaratilgan dasturiy mahsulotdan foydalanish bo`yicha yo`riqnomani ishlab chiqish;
- O`quv mashg`ulotlarida dasturiy mahsulotdan foydalanish va uning samaradorligini baholash;
- Nazariy dars mashg`ulotlarini tashkil etishda mehnat muhofazasi talablari va unga riosa qilish bo`yicha ko`rsatmalar ishlab chiqish;
- Hayot faoliyati xavfsizligi bo`yicha zaruriy ma`lumotlar va tavsiyalarni keltirib o`tish;
- Bitiruv malakaviy ishini bajarish natijasida olingan natijalar bo`yicha xulosa va takliflarni keltirish;
- Muammoni yechishda foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatini keltirib o`tish talab qilinadi.

Keltirib o`tilgan mavzuga oid manbalardan ham ma`lumki, kasb-hunar kollejlariда o`qiydigan talabalar, qolaversa shu yo`nalishda pedagogik faoliyat olib boruvchi barcha o`qituvchilar uchun mutaxassislik fanlar blokida o`qitiladigan “Web dasturlash” fani mashg`ulotlarida talabalar bilimini baholashni test shaklida tashkil etishda bunday texnologiyalaridan foydalanish bo`yicha intellektual ta`lim resurslarini ishlab chiqish talabalarni bilim olishlarida amaliy yordam berishi nazarda tutiladi. Mavzuda keltirib o`tilgan masalani teranroq ochib berish hamda kelgusida shu fan bo`yicha

bilimlarini yanada mukammalroq qilmoqchi bo`lgan talabalarga eng ajoyib va ommabop bo`lgan o`z bilimlarini tekshirish uchun mo`ljallangan elektron intellektual ta`lim resurslari hamda dars ishlanmalarini yaratish talab qilinadi. SHuningdek, zamonaviy dars mashg`ulotlarini o`tkazish bo`yicha chuqur bilimlarga ega bo`lish uchun fan negizidagi bilimlarni yanada ochib berish va uni o`qitish metodikasini ishlab chiqish talab qilinadi.

2-bob. iSpring QuizMaker dasturi va uni o`rnatish talablari, xis qilinuvchi darajali testlar ishlab chiqish bo`yicha dasturning imkoniyatlari

2.1. iSpring QuizMaker dasturi imkoniyatlari va uning interfeysi

Uzluksiz ta'lim tizimida elektron axborot ta'lim resurslarini (EATR) yaratish hozirgi vaqtda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Dasturiy ta'minotlar tahlilini bayon etishdan oldin, EAT resurslariga nimalar kirishini ko'rsatib o'taylik.

EAT resurslariga fan bo'yicha yaratilgan elektron darslik, o'quv qo'llanma, metodik ko'rsatmalar, multimediyali vositalar, ma'lumotnomalar va lug'atlar, gipermatnlar, elektron testlar va topshiriqlar hamda shunga o'xshash talabaning mustaqil bilim olishini ta'minlovchi, o'rganishga qiziqish uyg'otuvchi resurslar kiradi [Fanning o'quv-metodik majmuasi/ O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2009-yil].

Yuqorida keltirilgan resurslarga qo'shimcha sifatida pedagogik dasturiy vositalar, video va audio ma'ruzalar, virtual laboratoriya stendlari, intreaktiv plakatlarni kiritish mumkin.

EAT resurslarini yaratishda keng ishlatilib kelinayotgan dasturiy ta'minotlardan biri Ispring dasturi hisoblanadi [<http://www.ispringsolutions.com>]. Odatda, taqdimotni o'tkazishga tayyorlanish jarayonida aksariyat hollarda Microsoft PowerPoint dasturiy ta'minotidan foydalaniadi. Ammo bunday taqdimotlar faqat mazkur mahsulot formatidagina bo'lishi mumkin (ppt, pptx). Hozirgi vaqtda internet texnologiyalarining rivojlanishi va o'z navbatida, masofali ta'lim turining paydo bo'lishi natijasida taqdimot fayllarini internet brauzerining o'zida onlayn ravishda to'g'ridan-to'g'ri ko'rish uchun flash (swf) formatida yoki HTML 5 texnologiyasi asosida yaratilgan fayl bo'lishi kerak. Hozirga kelib, PowerPoint dasturida tayyorlangan taqdimotdan flash-rolik shakllantirish imkoniyatini beruvchi dasturlar yaratilgan. Mahsulot iSpring deb nomlanadi va iSpring Free, iSpring PRO va iSpring Presenter kabi variantlarga ega [<http://www.ispringsolutions.com>]. Mustaqil ekspertlarning fikriga ko'ra, bugungi kunda mazkur mahsulot tezligi, bir formatdan boshqa formatga konvertatsiyalash sifati va opsiyalar soniga ko'ra eng yaxshilaridan biri hisoblanadi. iSpring nafaqat flash-taqdimotlarni yaratishga, balki ta'lim jarayonida qo'llanishi mumkin bo'lgan roliklar tayyorlashda, xususan, ularga turli shakldagi so'rovlar, elektron testlarni ham kiritgan holda o'zaro interaktiv bog'lanish imkoniyatini ham beradi.

iSpring quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- taqdimot fayllarini bir necha (exe, swf, html) formatlarda konvertatsiyalash imkoniyati;
- taqdimot kontentiga tashqi resurslarni (audio, video yoki flash fayllarni) kiritish imkoniyati;
- taqdimot kontentini muhofaza qilish: parol yordamida ko'ra olish, taqdimotga «himoya belgi»si qo'yish, taqdimotni faqat ruxsat etilgan domenlardagina «aylantirilishi»;
- video qo'shish va uni animatsiyalar bilan sinxronlashtirish;
- elektron test(nazorat)larini yaratish va natijalarini elektron pochtaga yoki masofaviy o'qitish tizimiga (LMS) uzatib berish imkoniyatini beradigan interaktiv matnlar yaratish uchun vosita o'rnatilgan (Quiz tugmachasi);
- masofaviy o'qitish tizimida foydalanish uchun SCORM/AICC — mos keluvchi kurslarini yaratish;
- taqdimot dastur darajasida aylantirish uchun ActionScript API;
- videotasvirni yozish va uni taqdimot bilan sinxronlashtirish;
- YouTube'ga joylashtirilgan roliklarni taqdimot tarkibiga kiritish imkoniyati.

EAT resurslari ichida kiruvchi ma'lumotnomalar va lug'atlarni yaratish uchun iSpring Kinetics dasturini keltirish mumkin.

iSpring Kineticsning quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud:

- biror-bir fan bo'yicha elektron ko'rinishdagi qulay bo'lgan glossariy, ma'lumotnomalar yoki lug'at yaratish;
- vaqt shkalasini yaratish;
- 3 o'chovli kitob yaratish;
- FAQ yaratish mumkin.

iSpring Kinetics dastur imkoniyatlari


EAT resurslari ichida kiruvchi elektron nazorat turlarini yaratish uchun iSpring QuizMaker dasturini keltirish mumkin.

iSpring QuizMaker quyidagi asosiy imkoniyatlari mavjud:

- tarmoqlangan testlar yaratish imkoniyati (adaptatsiyalashtirilgan testlarni yaratish) imkoniyati;
- ikki, uch, to'rt yoki besh javobli yopiq test topshiriqlari, ulardan biri to'g'ri, ikkitasi haqiqatga yaqinroq turidagi topshiriqlari;
- bir necha to'g'ri javobli yopiq test topshiriqlari;
- ochiq test topshiriqlari;
- o'xshashlikni aniqlashga yo'naltirilgan topshiriqlar;
- to'g'ri ketma-ketlikni aniqlashga mo'ljallangan topshiriqlarni yaratish imkoniyati.

2.2. iSpring QuizMaker dasturi va uni testlar majmularini ishlab chiqishdagi samaralarini baholash

Kompyuter yordamida onlayn taqdimotlar va elektron o`quv kurslarini yaratuvchi zamonaviy dasturlardan biri *iSpring Suite* dasturlar to`plamidir. *iSpring Suite* dasturlar paketiga *iSpring Pro*, *iSpring QuizMaker*, *iSpring Kinetics* jamlangan. Bu dasturlardan *iSpring QuizMaker* dasturi audio, video fayllar, tasvir va formulalar èrdamida interaktiv testlar va anketalar yaratadi. Interaktiv testlarni *iSpring QuizMaker* dasturi èrdamida tuzish uchun kompyuterga *iSpring Suite* dasturi bilan Adobe Flash (operasjon tizim razryadiga ko`ra 32 va 64 bitli) dasturi o`rnatilishi talab etiladi. dastur o`rnatib bo`lingach **Pusk** menyusidan **Vse programmo`** bo`limida *iSpring Suite* tanlanadi va natijada 1-rasmdagi oyna paydo bo`ladi.




Rasm1.

Bundan *iSpring QuizMaker* dasturi tanlanishi bilan 2-rasmdagi oyna ochiladi.



Rasm 2.Bu oynadan **Sozdat novo'y test** bo`limini tanlasak pedagogik testlarni tuzish uchun oyna ochiladi (3-rasm).




Rasm 3.

Bu oyna dasturning ishchi oynasi hisoblanadi. Ishchi oynanining **Dobavit test** bo`limidan test yaratish amali boshlanadi. Ushbu bo`limda pedagogik testlar turlarining 11ta turi keltirilgan ularni kerakligini tanlab test tuzishimiz mumkin. Ular quyidagilar:

1. Verno/neverno(to`g`ri/noto`g`ri) test turi –bunda savol berilib to`g`ri èki noto`g`ri javobini tanlanadi;
2. Odinochno`y vo`bor(bitta javobni tanlash) – bir necha variatdan kerakli javobni tanlash;
3. Mnojestvenno`y vo`bor(bir necha javobni tanlash);
4. Vvod stroki(satr kiritish) – javobni satrga kiritish yo`li bilan javob berish;
5. Sootvetstvie(mos keltirish) – savollarni javoblariga mos keltirib qo`yishorqali javob berish;
6. Poryadok (tartib) – javobni kerakli tartibga keltirib javob berish;
7. Vvod chisla(sonne kiritish) – satrga savol javbiga mos sonni kiritib javob berish;
8. Propuski (tushirib qoldirilgan) –tushirib qoldirilgan so`zlarni kerakli joyga qo`yib èzish;
9. Vlojenno`e otveto`(jamlagan javoblar)–jamlangan javoblar ichidan to`g`ri javobni tanlash orqali javob berish;
10. Bank slov(so`zlar ombori) –so`zlar omboridan kerakli so`zlarni to`g`ri ketma ketlikda qo`yish orqali javob berish. Bunda so`zlar omboriga so`zlarni ham kiritish kerak bo`ladi.


11. Aktivnaya oblast (faol soha) –rasmida aktiv sohani tanlab javob beriladi. Bunda rasmning biror sohasini tanlash kerak bo`lgan savol kiritiladi. Test tuzishda ana shu testlar turini tanlab unga mos savollar berib, javobini ham kiritish kerak bo`ladi. Misol tariqasida informatika fanidan bitta test tuzib ko`raylik:



Rasm 4. Birinchi qadam biz ko`rib turganimizdek dasturda hamma so`zlar ruschada berilgan. Ularni o`zbekchaga o`tkazib olishimiz ham mumkin. Dasturni ishchi oynasida **Test** bo`limidan *Nastroyki* bandini tanlaymiz. SHunda oyna ochiladi (4–rasm). Oynaning chap bo`limidan *Nadpisi* bandini tanlaymiz.

Soobhenie/knopka ustuniga tegmagan holda *Nadpis* ustuniga birinchi ustunga berilgan so`zlarni mosiga o`zbekcha so`zlarni kiritib tahrirlashimiz mumkin. Natijada testimiz o`zbekcha ko`rinishga keladi.

Ikkinci qadamda kerakli test turini ***Dobavit vopros*** bo`limidan tanlaymiz. Misol uchun verno/neverno turi. SHunda dastur oynasi quyidagicha ko`rinishga keladi(5-rasm).




Rasm 5.Ushbu oynanining *vopros* oynachasiga savol kiritib, unga ko`ra *otvet* oynasiga ikkita javob kiritib, savolga mos to`g`ri javobni tanlab qo`yiladi. Dastur oynasining o`ng qismida

Izobrajenie, Zvuk, Video èzuvi turibdi shular èrdamida fayllardan tasvir, formula, ovoz, videolar tanlab savollar ham tuzish imkoniyati mavjud. SHu tarzda har xil test turlaridan tanlab testlarni yaratish mumkin.

Uchinchi qadam. Test tuzib bo`lingandan so`ng uni sozlash kerak bo`ladi. Umumiy ball berish, har bir savolga necha ball berish, testni davomiyligi va h.k. buning uchun yana *Nastroyki* bo`limiga kiramiz(4-rasm). Bu oynaning chap oynasidagi bo`limlarga kirib testerimizni sozlab olamiz.

To`rtinchi qadam dastur oynasining **Test** bo`limidan **Publikovat** bandini tanlaymiz va natijada oyna ochiladi(6-rasm).



Rasm 6. Yaratgan testimizni to`rt xil ko`rinishda yaratishimiz mumkin. Web sahifa, iSpring Online, LMS, Word sahifasi. Undan keyin test formatini HTML, exe, Zip arxivni tanlashimiz, tester nomi, qo`llanish ko`lami, saqlanadigan o`rni, fayl nomi va flesh-rolik xususiyatlarini tanlab **Publikovat** tugmasini bosamiz.

YUqorida keltirilgan testdan ko`rinib turibdiki, bu test an`naviy testlarga qaraganda bu testda bir xillik bo`lmaydi va talabalarga bir muncha qiziqarliroq tarzda testlar beriladi. Undan tashqari bu interaktiv testlarni rasm, ovoz va formulalar èrdamida testlarni tuzish imkoniyati mavjudligi ularni yanada qiziqarli va qolaversa talabani katta intuziazm bilan ishlashga chorlaydi. Oddiy testlardan chegaralangan yo`nalishlar foydalanib test nazorati o`tkazishi mumkin edi, misol uchun musiqa yo`nalishi talabalari uchun faqat nazariyadan savollar berish mumkin edi, bu dasturda esa ovozlar qo`yish èrdamida test tuzish imkoniyati borligi biror bir musiqadan parcha qo`yib savollar tuzish imkoniyatini yaratadi. Boshqa yo`nalishlar; informatika, matematika, fizika, biologiya, geografiya va h.k. lar uchun ham juda qiziqarli, interaktiv testlar tuzish imkoniyati mavjud.

Undan tashqari testni kompyuter tarmoqlari orqali ham o`tkazish imkoniyati va elektron pochta orqali yo`llab yuborish imkoniyatlari mavjudligi hozirgi zamонавиy ta`lim talablariga ham javob bera oladi

2.3. Web dasturlash fani bo`yicha me`yoriy xujjatlar va ularni asoslarini shakllantirish

Fanning o`qilishidan maqsad - shaxsiy kompyuterdan unumli foydalanishda asosiy dasturiy vosita bo`lib xizmat qiluvchi Web sahifalarni yaratish asoslarini, sahifalarni yaratish bo`yicha bilimlar darajasi bilan ta`minlashdir.

Fanning vazifasi – ko`rsatilgan talablar asosida bilimlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda o`qitish, talabani ushbu fan bo`yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini tajriba ishini bajarish bilan real sharoitga qo`llash bo`yicha ko`nikmalar hosil qilishdir.

Fan bo`yicha talabalarning bilimiga, ko`nikma va malakasiga qo`yiladigan talablar.

«Web dasturlash» o`quv fanini o`zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- Web brauzerlar va Web sahifalarni, yaratish uchun dasturiy vositalarini, Web sahifa yaratish tillarini, NTML tili. Hujjat tashkil qilish. Matn kiritish, formatlash va hujjatni formatlash. MS FrontPage dasturida saxifalar yaratish. Teg va atributlar. Buyruqlarni yozish va strukturasi. Ranglar bilan ishlash. Xarakatlanuvchi satrlar yaratish. Web-tarmoqlarni yaratishning umumiyligi tamoyillari Web-dizayn. Web-dizayn yaratishning asosiy qoidalarini **bilishi kerak**;

